

JAHON MOLIYA BOZORLARI VA UNUNG INQIROZI SABABLARI

X. Samatov

Ilmiy raxbar

Ismoilov Ruslan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11402308>

Annotatsiya. Jahon moliya bozori xalqaro kapital bozorining bir qismi bo'lib, turli mamlakatlardagi kreditorlar va qarz oluvchilarning kapitalga bo'lgan jami talab va taklifini o'zida mujassamlashtiradi. Shu o'rinda moliya bozori va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlab o'tish lozim. Chunki moliya bozorining mavjudligini asosiy tamoyili iqtisodiy o'sishni jadallashtirish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: moliya bozori, iqtisodiy o'sish, investitsiyalar, moliyaviy instrument.

WORLD FINANCIAL MARKETS AND CAUSES OF ITS CRISIS

Abstract. The world financial market is a part of the international capital market, which embodies the total supply and demand for capital of lenders and borrowers in different countries. At this point, it is necessary to emphasize the interrelationship between the financial market and economic growth. Because the main principle of the existence of the financial market is the acceleration of economic growth.

Key words: financial market, economic growth, investments, financial instrument.

МИРОВЫЕ ФИНАНСОВЫЕ РЫНКИ И ПРИЧИНЫ ЕГО КРИЗИСА

Аннотация. Мировой финансовый рынок является частью международного рынка капитала, который воплощает в себе совокупный спрос и предложение на капитал кредиторов и заемщиков в разных странах. Здесь необходимо подчеркнуть взаимосвязь финансового рынка и экономического роста. Потому что главный принцип существования финансового рынка – ускорение экономического роста.

Ключевые слова: финансовый рынок, экономический рост, инвестиции, финансовый инструмент.

Moliya bozori va iqtisodiy o'sishni quyidagi oddiy misol (investitsiyalar) bilan tushuntirishga urunib ko'ramiz. Iqtisodiy o'sish va investitsiyalar (moliyaviy instrument ko'rinishini olgan investitsiya)ning o'zaro bog'liqligi mexanizmi Nobel mukofoti laureati P.Samuelsion tomonidan "akselerator tamoyili" ko'rinishida quyidagicha ifodalangan[1]: real YaIM o'sishi real investitsiyalar o'sishiga olib keladi, o'z navbatida real investitsiyalarning ko'tarilishi unga javoban YaIM o'sishiga sabab bo'ladi. Bu tamoyilning muhim jihati shundan iboratki, real investitsiyalar real kapital (bino va inshootlar, mashina va anjomlar) va ishlab chiqarish zahiralari bahosi ortishini bildiradi. Demak, ko'rinib turibdiki, moliyaviy instrumentlar (qimmatli qog'ozlar) yordamida real kapitalga qilingan investitsiyalarning ortishi uning bahosini oshiradi, bu esa mos ravishda moliyaviy instrument ko'rinishini olgan investitsiyalarning o'sishiga olib keladi, ya'ni "moliyaviy instrument (qimmatli qog'oz) va uning real bazisi (real kapital) o'rasidagi ekvivalentlilik" tamoyilini to'g'riligini hamda iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va moliya bozorining o'zaro bog'liqligi isbotlaydi.

Demak moliya bozori mamlakat YaIM shakllanishini, iqtisodiy o'sishning ta'minlanishini

harakatga keltiruvchi unsur bo'lib xizmat qiladi. Dunyo moliya bozorida mamlakatlar ulushining kattaligi davlatning iqtisodiy qudratini, boshqa mamlakatlarga ta'sirini ko'rsatib beradi. Bugungi kunda dunyo moliya bozorining umumiy qiymati 230 trillion AQSh dollaridan yuqoriligi ko'plab yillik hisobotlar va maqolalarda qayd etib o'tilgan. Quyida dunyo mamlakatlarining jahon moliya bozoridagi ulushi keltirilgan (1-rasm).

Dunyo mamlakatlarining jahon moliya bozoridagi ulushi (2018 yil holatiga)[3] Bugungi kunga kelib, nisbatan kam sonli mamlakatlar o'rtasida moliya bozorining salmoqli ulushi taqsimlangan. Bular ichida eng kattalari AQSh (40%), Yaponiya (8%), Xitoy (7%), Gongkong (7%), Buyuk Britaniya (4%), Fransiya (3%), Germaniya (3%) kabi dunyoning eng qudratli mamlakatlari o'rin olgan. Ko'rinib turibdiki dunyo moliya bozorining uchdan ikki qismi aksariyat rivojlangan mamlakatlarga tegishli. Jahon moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri fond birjasi yoki qimmatli qog'ozlar (kapital) bozori hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2018 yilda jahon fond bozori kapitalizatsiyasi 85 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. Kapitalizatsiyaning asosiy qismi Amerika Qo'shma Shtatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, AQSh kapitalizatsiyasi dunyoning boshqa jami mamlakatlari fond bozorining kapitalizatsiyasiga qariyb teng bo'lib qolgan. Shu sababli o'rganishlarimiz jarayonida ko'proq urg'u AQShga beriladi.

AQSh kapital bozori dunyodagi eng katta va to'lovlik va samaradorlik qobiliyati eng yuqori bo'lgan mamlakat hisoblanadi. AQSh kapital bozori qiymati mamlakat yalpi ichki mahsulotidan qariyb 2 barobar katta - fond bozori YaIMning 162 foizini tashkil etadi, YaIMni doimiy daromad bozori (Fixed income market) bo'yicha hisoblaganda AQSh kapitali 207 foizni tashkil etgan. Jahon fond bozori kapitalizatsiyasining 2018 yilda dunyo mamlakatlari kesimida taqsimlanishi 03/2019

Jahon qimmatli qog'ozlar bozori kapitali 2018 yilda 85 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. AQShning undagi ulushi 38 foizni yoki jami kapitalning 32 trillion dollarini tashkil etgan. Bu o'zidan keyingi eng yirik bozordan qariyb 3,5 barobar katta demakdir (Yevropa ittifoqiga nisbatan (Buyuk Britaniyani hisobga olmaganda)). Shuningdek, jahon fond bozorining asosiy ishtirokchilari qatoriga Yevropa Ittifoqi (11%), Xitoy (10%), Yaponiya (7%), Buyuk Britaniya (5%), Gong Kong (5%), Kanada (3%), Avstraliya (2%) va Singapur (1%) ni kiritishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar dunyo fond bozorining asosiy o'yinchilari hisoblanadi (2-rasm). 3-rasm. Jahon fond bozori kapitalizatsiyasi faqatgina AQSh va rivojlanayotgan mamlakatlar mavjud bo'lgan holatda qanday taqsimlanishi[5]So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 195 dona mamlakat mavjud. Ularning 80ga yaqini rivojlangan mamlakatlar sifatida e'tirof etilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki qolgan 115 mamlakat rivojlanayotgan yoki turg'un (rivojlanishdan to'xtagan) mamlakatlar hisoblanadi. Aynan shu mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston dunyo fond bozorining atiga 17 foiziga egalik qiladi. Solishtirish uchun yuqoridagi holatni e'tiboringizga taqdim etmoqchimiz (misol tariqasida). Agar dunyo fond bozori faqatgina AQShning 38 foizlik ulushi va rivojlanayotgan mamlakatlarning 17 foizlik ulushidan iborat bo'lganda edi, ular o'rtasidagi fond bozori kapitalizatsiyasi yuqoridagi kabi taqsimlangan bo'lar edi. Ya'ni AQSh bozorining 69 foiziga (bozorning uchdan ikki qismi) rivojlanayotgan mamlakatlar 31 foizga egalik qilgan bo'lar edi.

Jahon moliya bozori segmentlari va unda dunyo mamlakatlarining ulushi 4-rasmda keltirilgan diagrammalarda jahon moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri hisoblangan fond bozori va doimiy daromad bozorlarining moliya bozoridagi ulushi hamda mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishi keltirilgan. Fond bozori 2018 yilda 85 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, doimiy daromad bozori qiymati 100 trillion dollarga teng bo'lgan. Jahon fond bozori va doimiy daromad bozori bo'yicha aksariyat dunyo mamlakatlarining ulushi teng. Biroq bu ko'rsatkichlar Yevropa Ittifoqi hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda keskin farq qiladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida global va mintaqaviy moliyaviy markazlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan, iqtisodiy-moliyaviy, huquqiy- me'yoriy mexanizmlar majmui asosida turli mahalliy va xorijiy moliya institutlarining ma'lum bir joyda moddiy-iqtisodiy manfaat yuzasidan to'planishini ta'minlaydi. Natijada mamlakat moliya bozoridagi aktivlar va ko'rsatiluvchi xizmatlar turini ko'paytiradi, innovatsion mahsulotlar bilan takomillashgan, iqtisodiy mustahkam, murakkab infratuzilmani yuzaga keltiradi. Moliyaviy institutlarning bir joyga to'planishi yoki akkumulyatsiyasi hisobiga shakllangan moliya bozoridagi kuchli raqobat ular ko'rsatadigan xizmatlarning iste'molchilar talabi asosida son va sifat jihatdan oshishiga olib keladi. Jahon iqtisodiyotida moliya sektorining rivojlanish xususiyatlarini o'z ilmiy ishlarida tadqiq etgan bir qator iqtisodchi olimlar global, xalqaro, mintaqaviy va mahalliy moliyaviy markazlarning o'ziga xos jihatlari yoritishga harakat qilganlar. L.N. Krasavinaning fikricha, jahon moliyaviy markazlari bu xalqaro moliyaviy oqimlar va yirik hajmdagi operatsiyalarning nisbatan foydali bo'lgan sohalar bo'yicha taqsimoti natijasida ma'lum bir joyda to'planishi, yoki markazlashuvini anglatadi. Tarixan, ular milliy bozorlar negizida, keyinchalik jahonning valyuta, kredit, fond va oltin bozorlari asosida paydo bo'lgan. Shuning uchun, jahon moliyaviy markazlari tarkibida moliya bozorining barcha sektorlari joylashgan A.V. Novikov va I.Y. Novikova moliyaviy markazlar tushunchasini aniqlashda uch xil yondashuvga asoslangan[8]. Birinchidan, funksional jihatdan moliyaviy markazlar moliyaviy va maslahat xizmatlarining majmuidir. Ikkinchidan, institutsional nuqtai nazardan ular moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi moliyaviy institutlar tizimi hisoblanadi. Uchinchidan, moliyaviy markazlar geosiyosiy jihatdan moliya bozori 59 ishtirokchilariga sifatli xizmat ko'rsatish, moliyaviy resurslarni jalb etish va qayta taqsimlashga imkon beruvchi infratuzilmaga ega global shaharlardir. Uchinchi yondashuv L.N.Krasavinaning xalqaro moliyaviy markazlar to'g'risidagi tushunchasini yanada aniqlashtirishga imkon beradi.

V.S. Utkinning fikricha, hozirgi kunda moliyaviy markazlar xalqaro sanalishi uchun kamida quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak Birinchidan, markaz joylashgan mamlakat iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashgan bo'lishi, unda barqaror valyuta asosida doimiy iqtisodiy o'sish ta'minlanishi va samarali moliyaviy siyosat yuritilishi lozim. Ikkinchidan, markazda moliyaviy operatsiyalar va investitsiyalarga to'sqinlik qilmaydigan, mablag'larni samarali taqsimlash imkonini beruvchi liberal soliq va huquq tizimi amal qilishi kerak. Uchinchidan, moliyaviy markazda bank, birja va sug'urta tizimini o'z ichiga olgan, samarali nazorat yuritiladigan, rivojlangan moliyaviy infratuzilma mavjud bo'lishi zarur. Tahlillarimiz asosida yirik xalqaro moliyaviy markazlar yer yuzidagi asosiy vaqt zonalarida doirasida joylashganligi, xususan Nyu-York, London, Syurix, Gonkong, Sigapur, Tokio, Shanhay, Seul jahondagi eng katta moliyaviy markazlar hisoblanishi, shuningdek, moliyaviy markazlar o'rtasidagi kurash turli vaqt zonalarida joylashgan markazlarga nisbatan o'z vaqt zonasida

joylashgan markazlar o'rtasida kuchli bo'lishi aniqlandi 2018 yilda jahon bo'yicha e'lon qilingan GFCI ko'rsatkichi deyarli o'zgarishsiz tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, umuman 30 ta yirik moliyaviy markazlardan atigi 10 tasi o'z reytingini oshirishga erishgan. Tadqiqotlarimizga ko'ra, 2007 yildan boshlab e'lon qilinib kelayotgan GFCI ko'rsatkichlarida Gonkong va Singapur moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning barcha turlari bo'yicha Nyu York va Londondan keyingi yirik global moliyaviy markazlar sifatida dunyoda tan olib kelinmoqda. Shuningdek, Gonkong va Singapur moliyaviy markazlarida moliya bozorining taraqqiyoti va sohaning raqobatbardoshligi qariyb bir xil ekanini tahlillar natijasida aniqlash mumkin. Bu esa, o'zida tez sur'atlarda moliyaviy markazni shakllantirgan shaharlar sifatida ularning xalqaro aloqalarini tashkil etish, mintaqaviy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti yo'lida foydalanish uchun o'rganish zaruratini ko'rsatadi. Global moliyaviy markazlar indeksining o'zgarish tendensiyasi (reyting baholash asosida hisoblangan, yuqori reyting moliyaviy markazning kuchayganligidan alomat beradi).

Dunyo mintaqalari bo'yicha moliyaviy markazlar holatini tahlil qilsak, oxirgi yillarda G'arbiy Yevropadagi asosiy 5 ta, jumladan London, Frankfurt, Parij, Jeneva va Lyuksemburg moliyaviy markazlarining reytingi kamaygan yoki o'zgarishsiz qolgan. Sharqiy Yevropadagi Almata, Stambul, Praga moliyaviy markazlarining reytingi ortib borgan, Moskvaning reytingi yaxshilanmay, 88 o'ringa tushib qolmoqda. 2018 yilda Osiyo va Tinch okeani havzasida joylashgan 10 ta yirik moliyaviy markazlardan 8 tasi, ya'ni Gonkong, Singapur, Shanxay, Tokio, Pekin, Sidney va Shenjen moliya markazlarining reytingi o'tgan yilga nisbatan pasaygan yoki o'zgarishsiz qolgan, Melburn, Sindao, Kuala Lumpur va Vellington kabi moliya markazlarining reytingi ko'tarilganini kuzatish mumkin. Yaqin Sharq va Afrikadagi ayrim moliyaviy markazlar, ya'ni Dubay, Abu-Dabi, Yoxannesburg, Kasablanka shaharlarining reytingi esa yaxshilanib bormoqda. Shimoliy Amerika qit'asidagi Boston, Vashington, Toronto, Nyu York kabi moliya markazlarining reytingi qariyb pasaymagan bo'lsa, hududdagi Montreal shahrining reytingi, 32 ballga ortib, 24-o'rindan 18-o'ringa ko'ratilgan. Lotin Amerikasi qit'asidagi moliyaviy markazlar reytingi o'zgarishida beqarorlik mavjud. Braziliyadagi San-Paula va Rio-de-Janeyro moliyaviy markazlari reytingi biroz tushgan, Meksika va Panama shaharlarining reytingi ortib, GFCIdagi o'rni mos ravishda 1 va 8 pog'ona yuqoriga ko'tarilgan. Offshor moliyaviy markazlar[11] hududni tartibga solish va o'z mavqei uchun kurash olib bormoqdalar. Natijada Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo'shma qirolligining alohida ma'muriy birliklari, xususan Normand orollari (Gerisi, Djersi, Sark orollari), Men oroli va mazkur Qo'shma qirollikka tobe hududlar (GFCIda ko'rsatiladigan 4 ta hududdagi 14 offshor markazlar)ning xalqaro moliyaviy markaz sifatida reytingi tushmoqda. Moliyaviy markazlarni baholashda ularning raqobatbardoshligi o'zgarish darajasiga ham e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Markazlar raqobatbardoshligining barqarorligini aniqlashda ikkita asosiy me'zondan foydalanish maqsadga muvofiq, ya'ni birinchisi markazni baholovchi mutaxassislar xulosalaridagi farqlarning ortishi, ikkinchisi vositali omillar ko'rsatkichlari o'zgarishida beqarorlikning kuchayishi hisoblanadi. Mazkur ikki mezon asosida moliyaviy markazlar barqaror, dinamik o'zgaruvchan, prognoz qilib bo'lmaydigan turlarga ajratiladi. Tahlillarimiz natijasida London, Nyu-York, Singapur, Gonkong va Seul moliyaviy markazlari raqobatbardoshlik bo'yicha barqaror ekanligi aniqlandi. Fikrimizcha, mamlakatimiz moliya bozorining yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlanishini ta'minlash, xalqaro moliya

munosabatlarini erkinlashtirish, ushbu sohalarning innovatsion taraqqiyotini ta'minlash borasida Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

MOIYAVIYA BOZORLAR INQIROZGA O'CHARASH SABABLARI

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi—2008-yilda bo'lib o'tgan bo'lib, AQShda banklarning ipoteka kreditlarini qarzni qaytarish qobiliyati bo'lmaganlarga berishi oqibatida boshlanadi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va global-lashuvining kuchayib borishidir[1].

Jahon hamjamiyatida yaqin o'tmishda boshlangan va hozirda ham o'z o'rniga ega bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz aynan shu ma'noda globallashtirish jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'ladi

Dastlab AQSh ipoteka bozorlarida namoyon bo'lgan mazkur inqiroz yetarlicha to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubhali bo'lganlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida ro'y bergan.

Ipoteka krediti o'zining mohiyati bo'yicha ko'chmas mulk garovi hisobiga beriladigan kreditlar bo'lsa-da, AQSh bozorlari bunday likvidli ko'chmas mulklarga yetarlicha «to'yingani» oqibatida ularning narxlarini keskin tusha boshlagan.

Kreditlarning qimmatlashuvi aholining ipoteka kreditiga talabining pasayishiga va kreditlarni qaytarish bo'yicha qarzdorlar to'lovining kamayishiga olib keldi. Boshqa tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari va energiya resurslari narxlarining o'sishi aholining kreditni qaytarish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarining cheklanishiga sabab bo'ladi. 2000-2007 yillar mobaynida jahon bozoridagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxi o'rtacha ikki barobarga, benzin narxi esa 3,5 barobarga oshgan. Neft narxi rekord darajada ko'tarilgan, ya'ni bir barreli 147 dollardan ortdi[2].

Pirovard natijada 2007 yil boshida AQShda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaygan. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib kelgan[2].

Ko'pchilik mutaxassislar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosati ekanligini, ya'ni «o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvining cheklanganligi bilan ham izohlaydilar.

Jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini qayd qilish lozim. Ma'lumotlarga ko'ra, AQShda muomaladagi pul massasi (naqd, kredit pullar va turli to'lov vositalari)ning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmidan deyarli 10 baravar, agar pulning aylanish tezligi ham hisobga olinsa, uning miqdori pulga bo'lgan talabdan bir necha o'n baravar ko'payib ketganligini anglatadi.

Inqirozga qarshi choralar

AQSh va Evropa Ittifoqini inqirozdan qutqarish uchun yirik tijorat banklarining aksiyalarini sotib olib, ularni byudjet mablag'lari hisobiga likvidli aktivlar bilan ta'minlay boshladi yoki tijorat banklari kreditlari uchun davlat kafolatlari tizimidan foydalanish joriy qilinadi. Masalan, AQShda Federal zaxira tizimi qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali xususiy

sektorni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirgan bo'lsa, Buyuk Britaniya hukumati banklar va moliyaviy muassasalar aksiyalariga 37 mlrd. funt sterling mablag'larini investitsiya qilgan. Germaniya hukumati esa, bank tizimini qo'llab-quvvatlash uchun investitsiya va kreditlar shaklida 500 mlrd. evro ajratgan. Bu davrda Evropaning ko'pchilik yirik banklari milliyashtirildi, ya'ni davlat tomonidan sotib olindi[4].

Inqiroz oqibatlarini yumshatish uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullaridan keng foydalanish yo'lga quyilgan. Dunyoning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlari inqirozni bartaraf qilish uchun yirik miqdorda moliyaviy resurslar ajrata boshladi. Jumladan, AQSh hukumati sarflagan mablag'larining hajmi 3539 mlrd. dollar bo'lib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25% ni tashkil etadi. O'zbekiston ham xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanishi sababli inqiroz oqibatlarining ma'lum darajada iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini ko'rsatishi muqarrar bo'lgan[4].

REFERENCES

1. Jo'rayev.T.T. Iqtisodiyot nazariyasi (o'zbekcha). Toshkent: Fan va Texnologiyalar, 2018-yil — 352-357 bet. ISBN 978-9943-11-903-1.
2. Brian Duignan „financial crisis of 2007–08“ (inglizcha). britannica.com. Qaraldi: 7-aprel 2023-yil.
3. Karimov, Islom. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI, O'ZBEKISTON SHAROITIDA UNI BARTARAF ETISHNING YO'LLARI VA CHORALARI, O'zbekiston, Toshkent: O'zbekiston, 2009.
4. Wenjie Chen, Mico Mrkaic, and Malhar Nabar (mart 2019–yil). „The Global Economic Recovery 10 Years After the 2008 Financial Crisis“. IMF Working Paper. № WP/19/83. 15-bet. Qaraldi: 7–aprel 2023–yil.
5. . Edward E. Leamer. Macroeconomic Patterns and Stories. Los Angeles CA 90095-1481. p. 158.
6. Mapping global capital markets 2017. // McKinsey Global Institute, August 2017. p. 2.
7. Seeking Alpha - Country Stock Markets As A Percent Of World
8. SIFMA. Trends in the Capital Markets - 2019 outlook. p. 6.
International monetary and financial relations. M.: Finance and Statistics, 2005. - 576 with: Il. p. 295.)